# “QUM SOAT” SMS-VIKTORINASINI OʻTKAZISH QOIDALARI

MAZKUR QOIDALAR BILAN BATAFSIL TANISHIB CHIQISHINGIZNI SOʻRAYMIZ!

VIKTORINANING ASOSIY TARTIB-QOIDASI tanlov hisoblanib, unda ishtirokchilar oʻz aqliy salohiyatlari yordamida savollarga javob berish orqali g’olib boʻlish va qimmatbaho sovg’ani qo’lga kiritish imkoniyatiga ega boʻladilar. Viktorina Oʻzbekiston Respublikasi hududida abonent shartnomasini tuzgan BEELINE, UCELL, Perfectum va Uzmobile mobil operatori Abonentlari oʻrtasida oʻtkaziladi.

VIKTORINANING MAQSADI – yosh avlodning mutolaaga boʻlgan qiziqishini shakllantirish, bilim olish faolligini oshirish.

VIKTORINA VAZIFALARI – intellektual tadbirlarga jalb qilish orqali yoshlarning yangi bilimlar olishga boʻlgan qiziqishlarini kuchaytirish.

Viktorina shartlariga koʻra, Ishtirokchiga ikkita javob variantiga ega savol taklif etiladi va u bitta to’g’ri variantni tanlashi kerak. Har bir to’g’ri/noto’g’ri javob uchun Ishtirokchi ballarga ega boʻladi. Javob uchun sarflangan vaqtlar boʻyicha hammadan oldin eng koʻp ball toʻplaganlar kvartal, oy, hafta kunlari boʻyicha Viktorina g’olibi deb topiladi.

Viktorina G’olibini aniqlash:

- joriy Hafta kuni boʻyicha (00:00:00 joriy hafta tugagunga qadar 23:59:59)

- joriy Oy kuni boʻyicha (00:00:00 joriy oy tugagunga qadar 23:59:59)

- joriy Kvartal kuni boʻyicha (00:00:00 joriy kvartal tugagunga qadar 23:59:59)

Sovg’alar va Peshqadamlar roʻyxati har kuni (kuniga 5 mahal) MY5 telekanali orqali yoritib boriladi, shuningdek, bu haqida Tashkilotchining https://t.me/qumsoatr rasmiy Telegram kanali orqali ham kuzatib borish mumkin.

## Tushunchalar va ularning izohi

**Kontent** – SMS-xabarda olinadigan savol va javob variantlari.

**Abonent qurilmasi** – matnli xabar yaratish va joʻnatish imkonini beruvchi mobil aloqa tarmog’iga ulangan foydalanuvchi (oxirgi ishlatgan) uskunasi (mobil telefon, smartfon, kommunikator, shaxsiy choʻntak komp teri va b.q.).

**SMS-xabar** – Abonent qurilmasi tomonidan joʻnatiladigan va qabul qilinadigan matnli xabar.

**Abonent** – Operator kamida bitta Abonent raqami va/yoki yagona identifikasiya kodini ajratish bilan aloqa xizmatlarini koʻrsatish boʻyicha shartnoma tuzgan jismoniy shaxs.

**Foydalanuvchi (Ishtirokchi)** – Tashkilotchi Kontentini oluvchi va undan foydalanuvchi, mobil operatorlar bazasining Abonent raqamiga muvofiq, Tashkilotchi tomonidan identifikasiya qilinadigan jismoniy shaxs.

**Operator** – shartnoma boʻyicha Abonent bilan ikkinchi tomon hisoblanadigan, litsenziya asosida aloqa xizmatlarini koʻrsatuvchi kompaniya.

**Tashkilotchi** – “PRIME MEDIA SOLUTION” Masʼuliyati cheklangan jamiyati.

## 1. Umumiy qoidalar

1.1. Viktorina nomi: **“QUM SOAT”** (keyingi oʻrinlarda – “Viktorina”).

1.2. Viktorina rag’batlantiruvchi lotoreya yoki qimor oʻyini hisoblanmaydi va unda ishtirok etish biror-bir xavf uyg’otmaydi.

1.3. Isteʼmolchi huquqlari buzilishiga yoʻl qoʻymaslik maqsadida Viktorinani oʻtkazish reklama va isteʼmolchilar huquqini himoya qilish toʻgʻrisidagi Oʻzbekiston Respublikasi qonunchiligining barcha me’yor va qoidalariga qatʼiy rioya qilingan holda oʻtkaziladi.

1.4. Viktorinaning ishonch telefon raqamlari – 71 200-6003, qumsoat@finmedia.uz. Ish vaqti: 12:00 dan 19:00 gacha (shanba va yakshanba kunlari, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasi davlat bayramlari bundan mustasno).

1.5. Viktorina sovrinlari:

1.5.1. Elektron gadjetlar, mobil telefonlar, maishiy texnika.

1.5.2. Pul mukofoti – G’olibning mobil hisobiga, Kontentga obunani aktivlashtirgan SIM-karta raqamiga, elektr energiyasi va gaz uchun shaxsiy hisobiga oʻtkaziladi.

1.5.3. Kvartalning bosh sovrini – Avtomobil.

## 2. Ishtirok etish shartlari

2.1. Viktorinada roʻyxatdan oʻtgan va Kontentga ega boʻlgan Foydalanuvchilar Viktorina Ishtirokchisiga aylanadi.

2.2. Foydalanuvchilar SMS-Viktorinada savollarni 2 xil usuldan biri orqali olishlari mumkin:

2.2.1. Shaxsiy Abonent qurilmasidan 08185 qisqa raqamlariga q o’ng’iroq qilish.

Q’ng’iroq narxi Abonentlar uchun quyidagicha:

**BEELINE, UCELL - 5 262,50 (Besh ming ikki yuz oltmish ikki soʻm 50 tiyin) SOʻM.**

**UZMOBILE - 5 262,94 (Besh ming ikki yuz oltmish ikki soʻm 94 tiyin) SOʻM.**

**Perfectum - 5 262,93 (Besh ming ikki yuz oltmish ikki soʻm 93 tiyin) SOʻM.**

2.2.2. Shaxsiy Abonent qurilmasidan **8185** qisqa raqamiga **QST** matni bilan SMS-xabar yuborish. SMS-xabar narxi Abonentlar uchun quyidagicha:

**BEELINE, UCELL - 5 262,50 (Besh ming ikki yuz oltmish ikki soʻm 50 tiyin) SOʻM.**

**UZMOBILE - <u>5 262,</u>94 (Besh ming ikki  yuz oltmish ikki soʻm 94 tiyin) SOʻ**M.

**Perfectum - <u>5 262,93</u> (Besh ming ikki  yuz oltmish ikki soʻm 93 tiyin) SOʻM.**

Viktorinada dastlabki roʻyxatdan oʻtgani uchun Foydalanuvchi avtomatik tarzda 10 ball miqdorida bonus  qozonadi.

2.3. Roʻyxatdan oʻtgandan soʻng Foydalanuvchiga Viktorina savoli va ikkita javob variantiga  ega SMS-xabar  yuboriladi.

Har bir savolga javob Foydalanuvchi tomonidan **8185** qisqa raqamiga javobning tartib raqamini bildiruvchi ***QST1*** va ***QST2*** matn koʻrinishidagi oʻzi to'g'ri deb tanlagan SMS-xabarni joʻnatish orqali amalga oshiriladi.

Viktorina savoliga javob tariqasida yoʻllangan har bir SMS-xabarga javoban Foydalanuvchi ikkita SMS-xabar oladi:

2.3.1. Javobning toʻgʻri ёki notoʻgʻriligi haqidagi maʼlumot va toʻplangan ballarni koʻrsatuvchi xabar.

2.3.2. Viktorinaning keyingi savoli va ikkita javob variantiga ega xabar.

<u>SMS-Viktorinadagi savollar soni cheklanmagan</u>.

**Abonent tomonidan 8185, 08185 qisqa raqamlariga yuborilgan barcha xabarlar ularning mazmunidan qat'iy nazar tarifikasiya qilinadi!!!!**

2.4. Viktorina savollarini oʻzida aks ettirgan SMS-xabar, shuningdek, viktorina doirasida Foydalanuvchi tomonidan joʻnatiladigan maʼlumot xabarlari Foydalanuvchi uchun bepul hisoblanadi.

2.5. Viktorinada **18 yoshga** (balog'atga**) toʻlgan** salohiyatli barcha shaxslar, Oʻzbekiston Respublikasi rezidentlari, Oʻzbekiston Respublikasi hududida doimiy roʻyxatdan oʻtgan va istiqomat qiladiganlar ishtirok etishlari mumkin.

2.6. Viktorinada Tashkilotchining xodimlari hamda vakillari, ular bilan aloqador shaxslar, ana shunday xodimlar hamda vakillarning oila aʼzolari, huddi shu kabi Viktorinani tashkillashtirish va/yoki oʻtkazishga dahldor har qanday boshqa  yuridik shaxslar, shuningdek, ularning oila aʼzolarining ishtirok  etishi taqiqlanadi.

2.7. Fuqaroligi boʻlmagan shaxslar, xorijiy fuqarolar, yuridik shaxslar, norezidentlar, ikkita fuqaroligi boʻlgan shaxslar, yuridik shaxslar vakillari Viktorina ishtirokchisi boʻla olmaydi.

2.8. Viktorina qisqa raqamlariga bolalar yoki 18 yoshdan kichik shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan ruxsat etilmagan qo'ng'iroqlar va SMS-xabarlar uchun ularning ota-onalari yoki vasiylari javobgardir.

2.9. Har bir Foydalanuvchi oʻzini qiziqtirgan savollar va viktorina Qoidalari haqida maʼlumotga ega boʻlish hamda ishonch  telefon raqamlari yoki  elektron manzil boʻyicha sifatli-qoniqarli javob olish imkoniyatiga  ega.

## 3. Javoblarni kơrib chiqish va ballarni hisoblash tartibi

3.1. Har bir to’g’ri javob uchun Ishtirokchi 10 ballga ega bơladi. Har bir noto’g’ri javob uchun esa Ishtirokchi 2 ball oladi.

3.2. Agar Ishtirokchi joriy (23:59:59 da) kun yakunlangandan sơng kun davomida olgan oxirgi savoli bơyicha Viktorinadagi ishtirokini davom ettirishga qaror qilsa va oxirgi olgan savoli uchun to’g’ri javob yơllasa, bu to’g’ri javob uchun ballar javob yơllangan kun hisobiga kiritiladi. Mazkur ballar savolga to’g’ri javob yơllangan hafta va kun yakuni bơyicha ballar yig’indisini hisoblashda hisobga olinadi, biroq savol qabul qilingan kun yakuni bơyicha ballarni sanashda hisobga olinmaydi.

3.3. Agar Ishtirokchi kun davomida savolga javob bermasa, ya’ni faol Ishtirokchi bơlmasa, u holda bu Ishtirokchiga borilgan oxirgi savoldan 24 soat ơtib, unga SMS-bildirgi jơnatiladi va shu daqiqadan boshlab, u Viktorinadagi ishtirokini davom ettirishdan voz kechgan Ishtirokchi hisoblanadi. Bu vaziyatda uning tơplagan ballari hafta, oy va yil G’olibi tanlangunga qadar saqlanib qoladi.

3.4. Rơyxatdan ơtgan Foydalanuvchilarning raqamlari ma’lumotlar bazasiga tushadi va ularga avtomatik tarzda Viktorina ma’lumotlar bazasining maxsus rơyxatiga kiritiluvchi yagona identifikasiya raqami (ID) beriladi. Viktorina ơtkaziladigan butun davr mobaynida ballarni tơplovchi tizim ishlab turadi: Ishtirokchilar tomonidan har kuni Viktorinada ishtirok etishning har qanday usulida tơplangan hamma ballar yagona ma’lumotlar bazasiga jamlanadi.

3.5. Agar Ishtirokchi muayyan bir vaqtda Ishtirokini tơxtatadigan bơlsa, ơzi ishtirok etmagan (javobli xabar bormagan) kunlar yakuni bơyicha u kun Peshqadami bơla olmaydi, biroq hafta (ishtirok tgan haftasida), oy (ishtirok tgan oyida), kvartal (ishtirok tgan kvartalida) G’olibligiga talabgor bơlishi mumkin.

3.6. Agar Ishtirokchi joriy hafta yakuni bơyicha hech bơlmaganda bir marta g’olib deb topilgan bơlsa, u keyingi haftalar yakuni bơyicha yana bir marta g’olib deb topilmaydi, biroq u oy yoki kvartal yakuni bơyicha g’olib deb topilishi mumkin.

3.7. Agar Ishtirokchi joriy oy yakuni bơyicha joriy kvartalda hech bơlmaganda bir marta g’olib deb topilgan bơlsa, u keyingi oy yakunlari bơyicha joriy kvartalda yana bir marta g’olib deb topilishi mumkin emas, biroq kvartal yakuni bơyicha g’olib deb topilishi mumkin.

**3.8. Agar ikki yoki undan ortiq Ishtirokchi bir xil miqdorda ballar tơplagan bơlsa, ballarni birinchi bơlib tơplagan Ishtirokchi g’olib hisoblanadi.**

3.9. Viktorinani ơtkazish tartiblari bilan bog’liq barcha shartlarga rioya qilinishi uchun Tashkilotchilar orasidan 3 (uch) kishidan iborat Komissiya tuziladi. Viktorinaga bơlgan ishonchni yanada oshirish maqsadida Komissiya yig’ilishida Mustaqil vakil ishtirok etishi mumkin.

Kommisiya majburiyatlariga quyidagilar kiradi:

- Viktorinani ơtkazishga tayyorgarlik kơrish jarayonini nazorat qilish;

- ushbu Qoidalarda belgilangan tartiblarga muvofiq Viktorinani ơtkazish;

- tegishli hujjat (Protokol) tuzish orqali Viktorinani oʻtkazish bilan bog’liq natijalarni tasdiqlash.

Komissiya kotibi Viktorinani oʻtkazish protokolini yoritadi. Protokolda quyidagilar aks etadi:

- Viktorinani oʻtkazish vaqti va joyi;

- Viktorinani oʻtkazish boʻyicha Komissiya tarkibi haqida maʼlumot;

- Mustaqil vakil haqida maʼlumot;

- real vaqtda bevosita qanday oʻtgan boʻlsa, shunday tartibda Viktorinani oʻtkazish boʻyicha Komissiya faoliyati;

- qimmatbaho Sovrinni qoʻlga kiritgan Foydalanuvchi haqida maʼlumot koʻrsatilgan Viktorinani oʻtkazish natijalari.

Protokol Viktorina yakunlangach, uni oʻtkazish uchun masʼul boʻlgan Komissiyaning barcha aʼzolari tomonidan imzolanadi.

3.10. Agar Viktorina Ishtirokchisi G’olibga aylansa, keyinchalik sovrinni olish paytida shaxsni identifikasiyalash uchun u telefon orqali Tashkilotchiga barcha kerakli maʼlumotlarni xabar qilishi zarur.

## 4. Sovrinni topshirish tartibi

4.1. Sovrinni olish uchun G’oliblar pasport bilan shaxsan kelishlari yoki notarial tasdiqlangan ishonchnomaga (ishonchnomaning sovrinlarni olish uchun ekanligini koʻrsatish joiz) ega shaxslarni yuborishlari kerak.

4.2. Viktorina G’oliblari Tashkilotchiga quyidagilarni taqdim etadi:

4.2.1. Doimiy roʻyxatdan oʻtgan joyi tushirilgan pasport nusxasi;

4.2.2. Soliq inspeksiyasidan INN nusxasi;

4.2.3. Pochta manzili va uy telefon raqami (agar mavjud boʻlsa).

4.2.4. Chiroq va gazga kommunal xizmatlar toʻlovini amalga oshirish uchun (pulli yutuq kommunal xizmatlar boʻyicha hisobni toʻldirish uchun toʻlangan taqdirda) shaxsiy hisob raqami koʻrsatilgan yozma ariza.

Ishtirokchining oʻrnatilgan qoidalar boʻyicha taqdim etgan hujjatlari qaytarib berilmaydi.

**4.3. Mazkur shartlar bajarilmagan va G’olib tomonidan kerakli hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda sovrinlar Tashkilotchida saqlanib qoladi va tashkilotchi sovrinlarni g’olibga topshirmaslik huquqiga ega bo’ladi.**

4.4. Viktorina G’oliblari mazkur Viktorinada sovrin (sovrinlar)ni olish jarayonida yuzaga keladigan barcha soliq toʻlovlarini toʻlashga, shuningdek, Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan oʻrnatilgan boshqa tartiblarni bajarishga majbur.

Shunga binoan, Tashkilotchi Oʻzbekiston Respublikasi Soliq kodeksiga muvofiq G’olibning soliq agenti sifatida faoliyat yuritib, jismoniy shaxslar daromadiga soliq (JShDS)

miqdorini amaldagi qonunchilikda oʻrnatilgan stavka boʻyicha hisoblaydi va shunga to’g’ri keladigan soliqni G’olib nomidan byudjetga oʻtkazadi. Pul mukofoti G’olibga byudjetga toʻlangan soliq (JShDS) miqdoridan ayirib tashlangan holda toʻlanadi.

Tashkilotchi soliq va yig’imlar to’g’risidagi Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Oʻzbekiston Respublikasi soliq organlariga G’olib va sovrin miqdori haqida maʼlumot taqdim etadi.

4.5. Tashkilotchining Viktorina g’olibi boʻlgan Ishtirokchilarga Viktorina Sovrinlarini berish majburiyati Ishtirokchi tomonidan taqdim etilgan maʼlumotlar (uyali telefon raqami, telefon raqami egasining shaxsini, shaxsiy hisobini tasdiqlovchi hujjat, INN nusxasi) tekshirilgandan soʻng Viktorina Sovrinini Viktorina Ishtirokchisi qoʻliga berilgan va sovrin olinganligi haqidagi vedomostga Ishtirokchining shaxsiy imzosi qoʻyilgan daqiqadan bajarilgan hisoblanadi.

**4.6. Sovrinlarni topshirish muddati – Viktorina G’oliblari sovrinni olish uchun talabnoma qoldirishlari mumkin boʻlgan muhlat – 90 kun**.

4.7. Pul mukofotini berish naqd pul mablag’lari shaklida amalga oshirilmaydi.

4.8. Agar Tashkilotchiga bog’liq boʻlmagan holda G’olib Ishtirokchi sovrinni berish muddati tugagunga qadar Tashkilotchiga sovrinni olish boʻyicha murojaat qilmagan boʻlsa, mazkur holat Ishtirokchining Viktorina Sovrinini olishdan bosh tortgan deb hisoblanadi.

4.9. Agar Sovrinni berish muddati yakuni boʻyicha taqsimlanmagan Sovrinlar qolgan boʻlsa, Tashkilotchi bunday Sovrinlarga nisbatan Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi Qonunchiligiga zid boʻlmagan ravishda istalganidek yoʻl tutadi.

4.10. Viktorinaning Sovrinlar uchun fondi Viktorina Tashkilotchisi va Homiylari mablag’lari hisobiga shakllantiriladi.

4.11. Viktorina Sovrinlarining sifati bilan bog’liq eʼtirozlar bevosita shu sovrinlarni ishlab chiqarganlarga bildirilishi kerak. Sovrinlarning shikastlanmasligi va foydalanishga yaroqliligi Viktorina Ishtirokchilari tomonidan bevosita Viktorina Sovrinini olayotgan paytda tekshirib olinishi zarur. Tashkilotchi Sovrinni Viktorina G’olibiga topshirgach, Viktorina Sovrini bilan yuzaga kelishi mumkin boʻlgan har qanday shikastlanish uchun javobgarlikni zimmasiga olmaydi.

4.12. Sovrinlarning modeli, rangi, shuningdek, boshqa parametr va sifatlari Tashkilotchining ixtiyoriga koʻra belgilanadi va Ishtirokchilar kutganidek boʻlib chiqmasligi mumkin. Viktorina Sovrinlari tashqi koʻrinishi boʻyicha ularning televizion roliklar, reklama materiallari va Tashkilotchi saytidagi koʻrinishidan farqlanishi mumkin.

## 5. Fors-major holatlari

5.1. Tashkilotchi quyidagi holatlar uchun javobgar emas:

5.1.1. Tomonlar majburiyatini qabul qilishga imkon bermaydigan, tomonlar xohish-irodasi va xatti-harakatiga bog’liq boʻlmagan tabiat hodisalari (zilzila, koʻchki, toʻfon, qurg’oqchilik va boshqalar) yoki ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatlar (urush, qamal, jamoat manfaatlari yoʻlida amalga oshiriladigan import va eksportning taqiqlanishi) sabab sodir boʻlgan holatlarda.

5.1.2. Tomonlar xohishiga bog’liq boʻlmagan vaziyatlarda (o’g’rilik, zoʻravonlik, ommaviy tartibsizlik va boshqalar; iqtisodiy faoliyatning tugatilishi va boshqa hollarda).

## 6. Viktorinani oʻtkazish muddati

6.1. Tashkilotchi istalgan vaqtda Viktorinani toʻxtatish yoki tugatish huquqiga ega. Tashkilotchi Viktorinaning toʻxtatilishi yoki tugatilishi bilan bog’liq sabablar haqidagi maʼlumotlarni mumkin boʻlgan barcha yoʻllar bilan taqdim tadi.

## 7. Maxsus tartib-qoidalar

7.1. Tashkilotchining maʼlumotlar bazasida Viktorina Ishtirokchisi sifatida roʻyxatdan oʻtgan, biroq www.finmedia.uz saytida joylashtirilgan mazkur Qoidalardan norozi boʻlgan Ishtirokchi istalgan vaqtda Viktorinada ishtirok etishdan bosh tortish huquqiga ega.

7.2. Tashkilotchining yozma talabiga koʻra, Viktorina G’olibi Sovrinni olish bilan bog’liq barcha kutilgan va kutilmagan xarajatlarni, chunonchi, Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan soliqlarni, pul oʻtkazmalari uchun bankning vositachilik haqi va boshqalarni toʻlashni oʻz zimmasiga oladi.

7.3. Viktorina G’oliblari ular G’olib deb eʼlon qilinishi bilan oʻz huquq va majburiyatlarini toʻliq yoki qisman uchinchi shaxslarga berishga haqli emas.

7.4. Viktorinada ishtirok etish kontent Foydalanuvchilarining ushbu Qoidalar bilan tanishib chiqishi va toʻla rozilik berishini nazarda tutadi.

7.5 Viktorina G’olibi deb topilgan Ishtirokchilar qoʻshimcha roziliklarsiz Tashkilotchi va/yoki uning vakolatli vakiliga ismi, familiyasi, otasining ismi, rasmi, mobil telefon raqamlarini ommaviy maʼlum qilish huquqini, shuningdek, reklama maqsadlarida Viktorinadagi ishtiroki haqida reklamali intervyu, shu jumladan, boshqa axborot tarqatuvchi vositalar qatori radio va televidenie uchun intervyu olish huquqini, foydalanish muddati, tarqatilish hududini cheklamagan holda va qoʻshimcha mukofot toʻlovlarisiz har qanday reklama materiallarini tayyorlash uchun foto va video tasvirga tushirish huquqini taqdim etadi. Bunda reklama tarqatuvchisiga reklama qilinayotgan shaxs reklamani toʻxtatish talabi bilan yozma shaklda murojaat qilsa, murojaat olingan kundan boshlab, 10 bank kuni davomida reklama tarqatuvchisi reklama tarqatishni toʻxtatishi shart.

7.6. Tashkilotchi har qanday sabab boʻlganda ham, mazkur Qoidalarda koʻrsatilgan me’yorlar bundan mustasno, Viktorina Ishtirokchilari bilan yozishmaslik yoki boshqa munosabatlarga kirishmaslik huquqini saqlab qoladi.

7.7. Tashkilotchi Viktorina Ishtirokchilari tomonidan mazkur Qoidalar bilan oʻrnatilgan Sovrinni olish uchun kerak boʻladigan maʼlumotlarni oʻz vaqtida bermaganligi va ularning haqiqiy emasligi uchun javobgarlikni zimmasiga olmaydi.

7.8. G’olib boʻlgan Foydalanuvchilar tomonidan Viktorina Qoidalarining kechikib oʻqib chiqilishi mazkur Qoidalarda yozilgan talablarni va Sovrinni olish uchun Tashkilotchiga kerakli maʼlumotlarni taqdim etish muddatini buzish uchun uzrli sabab hisoblanmaydi.

7.9. Viktorina Sovrinlarining  egasi sovrinni unga teng miqdordagi pul kо'rinishida olmoqchi ekanligini bildirishi mumkin.

7.10. Agar Tashkilotchiga bog'liq bо'lmagan, shu jumladan, uzrli sabablarga kо'ra Viktorina Sovrinlari G'oliblar tomonidan sо'ralmagan bо'lsa, oxirgilari Sovrinlarni berish muddati tugashi bо'yicha Sovrinlarni talab qilish huquqini yо'qotadi.

7.11. Tashkilotchi mazkur Qoidalar tartibini, shu jumladan, Sovrinni topshirish uchun kerak bо'ladigan ma'lumotlarni taqdim  etish muddatini buzgan G'oliblarga, xuddi shu kabi ana shunday ma'lumotlarni taqdim  etmagan Ishtirokchilarga Viktorina Sovrinlarini topshirishdan voz kechish huquqini saqlab qoladi.

7.12. Zarurat paydo bо'lganda, Tashkilotchi Viktorina Ishtirokchilaridan davlat organlariga taqdim etiladigan kerakli ma'lumotlarni talab qilish huquqiga  ga.

7.13. Tashkilotchi telefon aloqasi, uyali operator ishlari, Internet tarmog'i bilan aloqa sifatiga, shuningdek, Internet-provayderlarning ish sifatiga va ularning Viktorina Ishtirokchilari uskunalari va dasturiy ta'minotlari bilan ishlashiga, qolaversa,  Tashkilotchiga bog'liq bо'lmagan boshqa salbiy oqibatlarga  ega shu kabi holatlar uchun javobgar  emas.

7.14. Tashkilotchi mazkur Qoida bо'yicha о'zi buzmagan hech bir holat uchun, shu jumladan, Qoidalarga muvofiq bо'lgan SMS-xabarlarning ma'lum hududlarda kо'rsatilmagan xizmatlar va (yoki) tarmoqda olib borilgan profilaktik ishlar oqibatida  yuborilmay qolishi yoki Tashkilotchiga bog'liq bо'lmagan boshqa sabablar uchun javobgarlikni zimmasiga olmaydi.

7.15. Agar Viktorinaning istalgan jihati qandaydir sabablar, shu jumladan, kompyuter viruslaridan zararlanish, mobil aloqa tarmog'idagi nosozliklar, nuqsonlar, ijozatsiz aralashuv, qalbakilashtirish, texnik nosozliklar yoki Viktorinani amalga oshirishga, uning xavfsizligiga, shaffofligiga,  yaxlitligi yoki о'tkazilishiga noto'g'ri ta'sir kо'rsatuvchi Tashkilotchi tomonidan nazorat qilinmaydigan har qanday holat tufayli  yuzaga keladigan sabablarga kо'ra rejalashtirgandek о'tkazilmaydigan bо'lsa, Tashkilotchi о'z ixtiyori bilan Viktorina о'tkazilishini tugatishi, о'zgartirishi yoki vaqtinchalik tо'xtatishi mumkin.

7.16. Tashkilotchi Viktorina Foydalanuvchisi/Ishtirokchisi/G'olibi tomonidan yо'l qо'yilgan biror-bir xatolik oqibatlari, shu jumladan, (boshqa narsalar qatori) yetkazilgan zarar uchun javobgar  emas.

7.17. Foydalanuvchilar tomonidan Viktorinada ishtirok etish Qoidalari bajarilgan paytda Tashkilotchi yoki vakolatli shaxslar foydalanuvchilarning Viktorinada ishtirok  etish davomida taqdim  etgan shaxsiy ma'lumotlarini Viktorinani о'tkazish maqsadi uchun kerakli usulda, shu jumladan, belgilangan ma'lumotlarni Viktorina Sovrinlarini ularning  egalariga topshirishni tasdiqlash maqsadida foydalanish, shuningdek, mazkur Viktorinani о'tkazish bilan bog'liq maqsadlarda Ishtirokchilar bilan  yakka tartibda muloqotni  yuritish maqsadida qayta ishlash huquqiga  ega. Ishtirokchilarning shaxsiy ma'lumotlari faqatgina mazkur Viktorina о'tkazilishi munosabati bilan Tashkilotchi tomonidan ishlatiladi va ushbu Viktorina maqsadlari bilan bog'liq bо'lmagan hech bir uchinchi shaxslarga taqdim etilmaydi. Kо'rsatilgan kelishuv Ishtirokchi tomonidan Tashkilotchi manziliga buyurtma pochta  yubormasi orqali yо'llangan yozma bildirgi yо'li bilan istalgan vaqtda qaytarib olinishi mumkin. Viktorinadagi ishtiroki davomida

Ishtirokchilar tomonidan taqdim etilgan barcha shaxsiy maʼlumotlarga nisbatan Tashkilotchi yoki uning vakolatli shaxslari tomonidan ularning daxlsizlik tartibiga rioya qilinadi va shaxsiy maʼlumotlar xavfsizligini taʼminlash boʻyicha chora-tadbirlar koʻriladi.

7.18. Viktorinada ishtirok etish Viktorinani oʻtkazish davrida va u yakunlangandan soʻng shu Viktorinaga taalluqli shaxsiy maʼlumotlarning qayta ishlanilishi, SMS-xabarlar olish, Tashkilotchi tomonidan reklama va xabarlar tayyorlashga Ishtirokchining qarshi emasligini bildiradi.

7.19. Viktorinaning barcha Ishtirokchilari Viktorinada ishtirok etish bilan bog’liq barcha xarajatlar (shu jumladan, cheklanmagan holda Internetga kirish va mobil aloqa bilan bog’liq xarajatlar, shuningdek, transport xarajatlari)ni mustaqil ravishda toʻlaydi.

7.20. Tashkilotchi www.finmedia.uz rasmiy saytida, MY5 telekanali yoki https://t.me/qumsoat rasmiy Telegram kanalida Viktorina haqidagi qoʻshimcha maʼlumotlarni joylashtirish huquqini saqlab qoladi.

7.21. Tashkilotchi oʻz ixtiyori bilan Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik tartiblari va mazkur Qoidalarga binoan mazkur Qoidalarni buzayotgan, destruktiv tarzda ish koʻrayotgan yoki mazkur Viktorinaga taalluqli boʻlgan boshqa shaxslarni ranjitish, xaqoratlash, tahdid qilish yoki tinchini buzish maqsadida xatti-harakat qilayotgan har qanday shaxslarning barcha taqdimnomalarini bekor qilishi, shuningdek, mazkur Viktorinada ishtirok etishini taqiqlashi mumkin.

7.22. Tashkilotchi Viktorinada tovlamachilikka toʻsqinlik qiluvchi qoʻshimcha texnik cheklovlarni istalgan vaqtda kiritish huquqini saqlab qoladi. Biror-bir Viktorina Ishtirokchisi tomonidan adolatsizlikka har qanday urinish kuzatilgan taqdirda, u Viktorinada ishtirok etishdan chetlashtirilishi mumkin. Tashkilotchi oʻzidagi mavjud texnik imkoniyatlarga hamda Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi Qonunchilik tartiblariga va mazkur Qoidalarga asoslangan holda Viktorinada adolatli ishtirok etishni baholashni mustaqil ravishda amalga oshiradi.

7.23. Mazkur Qoidalarda nazarda tutilmagan boshqa holatlarda Tashkilotchi va Viktorina Ishtirokchilari Oʻzbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga tayanadi.

7.24. Tashkilotchi www.finmedia.uz rasmiy saytida eʼlon qilish sharti bilan mazkur qoidalarga oʻzgartirish kiritish huquqini saqlab qoladi.

**8185 va 08185 QISQA RAQAMLARIGA SOʻROVNOMANI AMALGA OSHIRISH ORQALI FOYDALANUVCHI VIKTORINANING MAZKUR QOIDALARI VA TALABLARIGA ROZILIGINI TASDIQLAYDI.**

Tashkilotchining rekvizitlari:

“PRIME MEDIA SOLUTION” MChJ
Yuridik manzili: 100000, Toshkent sh., Mustaqillik koʻchasi, 59A
Telefon: +99871 237-4529
h/r 20208000200604762001
OPERB ATB «InFinBank» MFO 01041
STIR 303876560 IFUT 63110